

UO‘K(UDC, УДК): 82.091.

TEODOR DRAYZERNING “AMERIKA FOJEASI” ASARIDA IJTIMOYIY-MADANIY KODLAR VA LISONIY DUNYOQARASH MUTANOSIBLIGI²⁰

Aktamova Visola Baxtiyor qizi

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
birinchi bosqich tayanch doktoranti,
Toshkent, O‘zbekiston

E-mail: visolaaktamova23@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0003-1625-7855>

ANNOTATSIYA	KALIT SO‘ZLAR
<p>Ushbu maqolada XX asr Amerika adabiyotining yirik namunalaridan biri Teodor Drayzerning “Amerika fojeasi” romani asosida amerika orzusi diskursi va transmilliy identitet tushunchalari lingvokulturologik yondashuv orqali tahlil qilinadi. Maqolaning asosiy maqsadi shaxs va jamiyat o‘rtasida vujudga kelgan munosabatlarni badiiy talqin qilish hamda lisoniy birliklar orqali qahramonning ichki inqirozini yoritishdir. Tadqiqotda asosan lingvokulturologik, qiyosiy-tarixiy va badiiy tahlil metodlaridan foydalanilib, milliy va individual identitetning badiiy jihatdan qanday namoyon bo‘lishi, “amerika orzusi” konseptining matn orqali yoritib berilishi o‘rganiladi. Griffiths obrazidagi transmilliy identitetning shakllanishi uning ijtimoiy muhitga moslashish istagi va moddiy farovonlikka intilishi kontekstida tahlil etildi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, asardagi lingvomadaniy birliklar nafaqat qahramon xarakterini, balki davrning madaniy-ijtimoiy kodlarini ham ochib berdi. Tadqiqotning natijalari lingvokulturologiya, tarjimashunoslik va adabiyotshunoslik sohalarida nazariy manba sifatida xizmat qilishi mumkin.</p>	<p>Teodor Drayzer ijodi, ijtimoiy-madaniy kodlar, badiiy talqin, o‘zlikni anglash, Klayd Griffiths obrazi, ijtimoiy muhit, globallashuv jarayoni, ma’naviy qadriyatlar, lisoniy dunyoqarash, moddiy farovonlik.</p> <p>Received: February 17, 2026 Accepted: March 11, 2026 Available online: May 10, 2026</p>

²⁰ **For citation (Iqtibos keltirish uchun, для цитирования):**

Aktamova V. Teodor Drayzerning “Amerika fojeasi” asarida ijtimoiy-madaniy kodlar va lisoniy dunyoqarash mutanosibligi. // Komparativistika (Comparative Studies). — 2026. — Vol.3, № 3(11) — B. 228-238.

**THE PROPORTION OF SOCIO-CULTURAL CODES AND LINGUISTIC
WORLDVIEW IN THE WORK OF THEODORE DREISER'S "AN
AMERICAN TRAGEDY"**

Aktamova Visola Bakhtiyor kizi

Doctoral Student (1st year)

Uzbekistan State World Languages University

Tashkent, Uzbekistan

E-mail: visolaaktamova23@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0003-1625-7855>

ABSTRACT

This article analyzes the discourse of the American Dream and the concept of transnational identity through a linguocultural approach based on one of the prominent works of twentieth-century American literature the novel "An American Tragedy" by Theodore Dreiser. The main objective of the study is to provide an artistic interpretation of the relationship between the individual and society and to reveal the protagonist's inner crisis through linguistic units. The research employs linguocultural, comparative-historical, and literary analysis methods to examine how national and individual identity are represented artistically and how the concept of the "American Dream" is manifested within the text. The formation of transnational identity in the image of Clyde Griffiths is analyzed in the context of his desire to adapt to the social environment and his aspiration for material prosperity. The findings demonstrate that the linguocultural units in the novel reveal not only the protagonist's character but also the socio-cultural codes of the era. The results of the study may serve as a theoretical resource in the fields of linguoculturology, translation studies, and literary studies.

KEYWORDS

Theodore Dreiser's work, socio-cultural codes, artistic interpretation, self-awareness, image of Clyde Griffiths, social environment, globalization process, spiritual values, linguistic worldview, material well-being.

**СООТНОШЕНИЕ СОЦИАЛЬНО-КУЛЬТУРНЫХ КОДОВ
И ЯЗЫКОВОЙ КАРТИНЫ МИРА В “АМЕРИКАНСКОЙ ТРАГЕДИИ”
ТЕОДОРА ДРАЙЗЕРА**

Актамова Висола Бахтиёр кизи

Докторант 1 курса

Узбекский государственный университет мировых языков

Ташкент, Узбекистан

E-mail: visolaaktamova23@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0003-1625-7855>

АННОТАЦИЯ	КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА
<p>В данной статье на основе одного из выдающихся произведений американской литературы XX века – романа «Американская трагедия» Теодора Драйзера с позиций лингвокультурологического подхода проводится анализ дискурса «американской мечты» и концепции транснациональной идентичности. Основной целью исследования является художественная интерпретация взаимоотношений личности и общества, а также раскрытие внутреннего кризиса героя посредством языковых единиц. В работе применяются лингвокультурологический, сравнительно-исторический и литературоведческий методы анализа, что позволяет выявить особенности художественного выражения национальной и индивидуальной идентичности, а также способы репрезентации концепта «американская мечта» в тексте романа. Формирование транснациональной идентичности в образе Клайда Гриффитса рассматривается в контексте его стремления к социальной адаптации и материальному благополучию. Результаты исследования показывают, что лингвокультурные единицы произведения раскрывают не только характер героя, но и социокультурные коды эпохи. Полученные результаты могут служить теоретической базой для дальнейших исследований в области лингвокультурологии, переводоведения и литературоведения.</p>	<p>Творчество Теодора Драйзера, социокультурные коды, художественное осмысление, самосознание, образ Клайда Гриффитса, социальная среда, процесс глобализации, духовные ценности, языковая картина, материальное благополучие.</p>

KIRISH

Zamonaviy adabiyotshunoslikda lingvokulturologik xususiyatlarni o‘rganish, til va madaniyat orasidagi muhim bog‘liqliklarni tahlil qilish tadqiqotlarning muhim obyektiga aylangan (Bondarko A., 2010, 45; Guliga E., 2012, 12). Shu o‘rinda, turli millat adabiyotlarini o‘rganishda transmilliy identit fenomeni yaqqol namoyon bo‘lmoqda (Bo‘ronov B., 2015, 78).

XX asr Amerika adabiyotida “amerika orzusi” konsepti paydo bo‘ldi, bunda shaxs va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar asosiy o‘rin egalladi (Smith A. D., 2008, 112). Bunday vaziyatda mazkur muammoni lingvokulturologik nuqtayi nazardan o‘rganish va tahlil qilish zarurati yuzaga keldi.

Teodor Drayzerning aynan shu davrda yozilgan “Amerika fojeasi” (ikki tomlik) asarida amerika orzusi diskursi va transmilliy identitet badiiy jihatdan yoritib berilgan (Dreiser T., 1925, 210). Bu maqolada aynan shu roman asosida lingvomadaniy xususiyatlar tahlil qilinadi.

Mazkur tadqiqotda Teodor Drayzerning “Amerika fojeasi” asarida transmilliy identitning amerika orzusi diskursi orqali qanday vujudga kelishini lingvokulturologik yondashuv orqali tahlil qilinadi. Tadqiqot predmeti sifatida shaxs va jamiyat munosabatlarida vujudga keladigan milliy va individual identitetning til birliklari orqali ifodalanishi, obyekt sifatida esa asar matni tanlangan.

“Amerika orzusi” konsepti nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy tushuncha, balki XX asr boshlaridagi Amerika jamiyatining lingvokulturologik kodidir. Mazkur konseptning badiiy diskursda namoyon bo‘lishi qahramonning lisoniy dunyoqarashini belgilaydi.

Teodor Drayzer o‘z asarida ushbu konseptni shunchaki g‘oya sifatida emas, balki qahramonning butun hayotiy faoliyatini boshqaruvchi diskursiv kuch sifatida tasvirlaydi. Bu esa o‘z navbatida shaxsning transmilliy identitetini, ya’ni uning milliy chegaralardan tashqaridagi umuminsoniy intilishlarini o‘rganishni taqozo etadi.

Tadqiqot natijasida XX asr Amerika adabiy muhitida shaxs va jamiyat munosabatlarini til va madaniyat mutanosibligida talqin qilish imkoniyatini beradi. Tadqiqotning ilmiy jihatdan yangiligi shundan iboratki, unda “Amerika fojeasi” romani lingvokulturologik jihatdan amerika orzusi konsepti va transmilliy identitet miqyosida tahlil qilinadi. Ushbu maqolaning xulosalari ilmiy-amaliy manba sifatida badiiy tahlilda, adabiyotshunoslik, tarjimashunoslik, lingvokulturologiyada katta ahamiyat kasb etadi.

METODLAR

Tadqiqotning metodologik asosini lingvokulturologik yondashuv tashkil etadi, bunda til birliklari madaniy axborot tashuvchisi sifatida tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalaniladi:

1. Konseptual tahlil orqali “Amerika orzusi” konseptining lisoniy maydoni va uning qahramon dunyoqarashidagi o‘rni aniqlandi.
2. Lingvokulturologik tahlil asosida Asar matnidagi boylik, ijtimoiy maqom va muvaffaqiyatni ifodalovchi leksik birliklar (masalan: wealth, luxury, success) madaniy kodlar sifatida tahlil etildi.
3. Diskurs-tahlil bilan Klayd Griffitsning ichki monologlari va nutqiy tafakkuri orqali uning identiteti o‘zgarishi o‘rganildi.
4. Komparativistik metod asnosida G‘arbiy va milliy adabiyotshunoslikdagi identitet masalalari qiyosiy o‘rganildi.

Tadqiqotda qo‘shimcha ravishda kontekstual-semantik tahlil metodidan foydalanildi. Bunda Teodor Drayzerning “Amerika fojeasi” romanidagi kalit so‘zlarning (masalan, “ambition”, “destiny”) badiiy kontekstdagi ma’no qirralari o‘rganildi. Lingvokulturologik yondashuv orqali matndagi lingvomademalar, ya’ni o‘zida ham til, ham madaniy axborotni jamlagan birliklar alohida ajratib olindi.

Ushbu birliklarning qahramon psixologiyasini ochishdagi va transmilliy identitetni shakllantirishdagi funksional yuklamasi V.V. Vorobyovning lingvokulturologik nazariyasi asosida tahlil qilindi.

ASOSIY QISM

Transmilliy identitet - hozirgi zamon globallashuv jarayoni, migratsiya, ommaviy axborot vositalari hamda transmilliy aloqalar ta’sirida vujudga keladigan ijtimoiy-madaniy hodisadir (Appadurai A., 1996, 45; Vertovec S., 2009, 12). Ushbu tushuncha bir vaqtning o‘zida shaxsning bir nechta millat, madaniyat, joylarga mansub deb identifikatsiya qilishi, milliy chegaralarni kesib o‘tish hissini anglatadi (Hall S., 1990, 222).

Asosiy xususiyatlaridan biri global madaniy ta’sir, ya’ni ijtimoiy tarmoqlar, kino, internet orqali turli millat vakillari bilan muloqot qilish orqali ularning madaniyatlarini ma’lum miqdorda o‘zlashtiradi (Beck U., 2000, 30). Bundan tashqari, bir necha milliy-madaniy muhitda yashash orqali ham shaxsda ko‘p qatlamli identitet shakllanadi. Masalan, dunyoning turli joylarida yashayotgan, ishlayotgan, tahsil olayotgan insonlar nafaqat o‘zi mansub bo‘lgan millat madaniyati, balki ayni paytda istiqomat qilayotgan mamlakati milliy-madaniy qadriyatlarini ham o‘ziga singdiradi, va natijada transmilliy identitetga ega bo‘lishi mumkin (Vertovec S., 2009, 12).

Adabiyotshunoslikda transmilliy identitet badiiy matn orqali ifoda etiladi, bunda shaxs va jamiyat o‘rtasidagi murakkab vaziyatlarni ochib berishda samarali tahliliy vosita sifatida foydalaniladi (Bakhtin M. M., 1981, 64).

Linvokultutologik yondashuv badiiy asarda keltirilgan matnning milliy-madaniy mohiyati, emotsional mazmuni va muallif dunyoqarashini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etadi (Maslova V. A., 2001, 56), bu esa asarning chuqur

ma'nolarini, asosan, xalq va millatga xos xususiyatlarini anglash imkoniyatini yaratadi. Bu yondashuv orqali matnni faqat semantik va grammatik jihatdan tahlil qilish bilan cheklanmay undagi qadriyatlar, milliy urf-odatlar, timsollar va madaniy kodlar ham yoritib berilib, matnning "ruh"ini topishga va tushunishga yordam beradi (Vereshchagin E. & Kostomarov V., 2005, 110; Stepanov Yu., 2004, 88).

Asosan, matndagi mahalliy lugʻat, ism-shariflar, joy nomalari, obrazlar orqali ma'lum millatga xos bo'lgan mentalitet, qadriyatlar, urf-odatlar, dunyoqarash va ta'lim-tarbiyalarini ochib berishga xizmat qiladi (Vorobyov V., 1997, 72).

Lingvokulturologik yondashuvda badiiy matnni til va madaniyat integratsiyasi nuqtayi nazaridan o'rganiladi.

XX asr Amerika adabiyotida shaxs va jamiyat o'rtasida vujudga kelgan murakkab munosabatlar fonida transmilliy identitet masalasi badiiy jihatdan yoritib berilgan muhim mavzulardan biri bo'ldi (Smith A., 2008, 112; Vertovec S., 2009, 45). Ushbu jihatlar Teodor Drayzerning "Amerika fojeasi" asarida ayniqsa yuqori darajada namoyon bo'ladi (Dreiser T., 1925, 210).

Asarda bosh qahramoni Klayd Griffitsning moddiy farovonlikka doimiy intilishi, ijtimoiy muhitga moslashishi, jamiyatda to'g'ri deb qabul qilingan qadriyatlarni o'zlashtirishga urinishi amerika orzusi diskursi orqali ifodalangan (Hochschild J., 1995, 76). Bunday holatda qahramonning individual identiteti milliy-madaniy qadriyatlar bilan to'qnashib, transmilliy identitet paydo bo'lishi kuzatiladi (Hall S., 1996, 12), va shaxsning ichki jiddiyatlari, jamiyatga integratsiyalashuvi roman matnida til birliklari, madaniy kodlar, diskurslar orqali lingvokulturologik jihatdan aks ettiriladi (Bondarko A., 2010, 54; Guliga E., 2012, 32). Asar matnida amerika orzusi diskursi moddiy farovonlikka erishish, jamiyatda yuqori o'rin egallash (ijtimoiy maqom), shaxsning muvaffaqiyatlari bilan bog'liq bo'lgan lingvomadaniy birliklar orqali ifodalanadi (Hochschild J., 1995, 102).

Badiiy matnda identitet inqirozini ochib berishda muallif mahalliy lugʻat va baholovchi leksikadan unumli foydalanadi. Masalan, Klayd Griffitsning boylikka intilishini ifodalovchi til birliklari nafaqat uning shaxsiy istaklarini, balki Amerika jamiyatining global madaniy ta'sirini ham ifodalaydi.

Drayzer qahramonning "ruhini" topishda uning ichki nutqidagi madaniy kodlarni ijtimoiy tanqidiy pozitsiya bilan bog'laydi. Bu kodlar qahramonning o'zligini ijtimoiy va milliy diskurslar ta'sirida o'zgartirishi jarayonini – transmilliy identitet shakllanishini lingvistik jihatdan asoslab beradi.

Drayzer o'z asarida ijtimoiy tan olinuv hamda shaxsning moddiy va shaxsiy muvaffaqiyatlarini tasvirlash maqsadida boylik, martaba va ijtimoiy mavqega doir lingvomadaniy birliklardan foydalanib, Amerika jamiyatidagi muhitni to'laqonli aks ettirishga uringan.

Klayd Griffitsning ichki monologlari orqali amerika orzusi uning ongida naqadar ustuvor o‘rin egallashi yaqqol namoyon bo‘ladi, va bu yo‘lda qahramon shaxsiy ichki identiteti va qadriyatlarini jamiyat tomonidan ideal norma deb qabul qilingan qadriyatlarga moslashtirishga majbur bo‘ladi. Ushbu holat shaxsning individual identiteti sekin-asta ijtimoiy va milliy diskurslar ta‘sirida o‘zgarishini ko‘rsatib, transmilliy identitetning vujudga kelish jarayonini ochib beradi.

Amerika orzusi Griffits uchun muvaffaqiyatga eltuvchi yo‘l sifatida ko‘ringan bo‘lsa-da, yakunda aynan shu diskurs uning ichki inqirozi va fojiali taqdirining asosiy sabablaridan biriga aylandi. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, “Amerika fojeasi” romanida amerika orzusi diskursi transmilliy identitetning murakkab va ziddiyatli xarakterlari bilan uzviy bog‘liq holda badiiy jihatdan yoritiladi.

Teodor Drayzer asarida Klayd Griffitsning o‘zligini(identitetini) o‘zgartirish jarayoni uning nutqiy adaptatsiyasida namoyon bo‘ladi. Klayd o‘zining diniy-axloqiy, oilaviy muhitidan (Kansas City) chiqib, Litsurgdagi yuqori tabaqa hayotiga moslashish jarayonida uning lug‘at boyligi tubdan o‘zgaradi.

Ma‘naviy qadriyatlarni ifodalovchi “sin” (gunoh), “repentance” (tavba) va “salvation” (najot) kabi diniy-madaniy kodlar o‘rnini moddiy dunyo bilan bog‘liq bo‘lgan “luxury” (hashamat), “fashionable” (dabdabali) va “exclusive” (Mutlaq) kabi lisoniy birliklar egallaydi. Bu jarayon qahramonning nafaqat ijtimoiy, balki lingvokulturologik transmilliy identiteti shakllanayotganidan dalolat beradi. U o‘zining eski madaniy kodlarini global “muvaffaqiyat tiliga” almashtiradi, bu esa provardida uning ichki dunyosida, mazkur ikki madaniy qatlam o‘rtasidagi ziddiyatni va identitet inqirozini keltirib chiqaradi.

Teodor Drayzer Klayd Griffitsning orzulari va intilishlarini tasvirlashda boylik va hashamatni ifodalovchi maxsus lingvomadaniy birliklardan foydalanadi. Roman matnida tez-tez uchraydigan “wealth” (boylik), “luxury” (hashamat), “social standing” (ijtimoiy mavqe) kabi so‘zlar nafaqat qahramonning istaklarini, balki Amerika jamiyatining o‘sha davrdagi qadriyatlar tizimini (madaniy kodlarini) ifodalaydi (Hochschild J., 1995, 102).

Klaydning transmilliy identiteti uning ushbu global “muvaffaqiyat tili”ni o‘zlashtirishi bilan boshlanadi. Muallif qahramonning ichki dunyosini tavsiflashda baholovchi sifatlar (masalan, “splendid”, “grand”, “exclusive”) orqali uning o‘zligidan uzoqlashish jarayonini lingvistik jihatdan ko‘rsatib bergan (Dreiser T., 1925, 210).

Teodor Drayzerning “Amerika fojeasi” romani tahlili natijasida Klayd Griffits obrazida transmilliy identitetning bir necha bosqichli shakllanishi aniqlandi. Qahramon o‘zining an‘anaviy oilaviy qadriyatlaridan voz kechib, jamiyat tomonidan taklif etilgan global muvaffaqiyat modelini qabul qildi.

Matn ichidagi havolalar tahlili shuni ko'rsatadiki, muallif Klaydning orzularini tasvirlashda "high society" (yuqori tabaqa), "grandeur" (hashamat), "social standing" (ijtimoiy mavqe) kabi baholovchi birliklardan unumli foydalangan (Hochschild J., 1995, 102). Ushbu birliklar qahramonning nafaqat ijtimoiy intilishlarini, balki uning o'zligini (identitetini) yangi madaniy muhitga moslashtirish jarayonini ham ifodalaydi. Klaydning fojeasi shundaki, u transmilliy qadriyatlar va shaxsiy axloq o'rtasidagi oltin o'rtaliqni topa olmaydi, natijada identitet inqiroziga uchraydi.

Klaydning ikki ayol o'rtasidagi tanlovi aslida uning ikki xil identitet o'rtasidagi kurashini ifodalaydi. Roberta Alden bilan muloqotda Klayd ko'proq sodda, an'anaviy va hissiy leksikadan foydalansa, Sondra Finchli bilan bo'lgan muloqotda u "aristokratik" nutq modelini o'zlashtirishga intiladi.

Sondra Finchli obrazi Klayd uchun transmilliy muvaffaqiyatning tirik ramzi (madaniy kodi) sifatida namoyon bo'ladi. Binobarin, Klaydning Robertadan qutulish istagi shunchaki shaxsiy munosabatlar inqirozi emas, balki uning o'zining "eski" identitetidan (kambag'allik va cheklovlar tili) butunlay voz kechib, "yangi" transmilliy va yuqori tabaqali identitetga (boylik va erkinlik tili) o'tishga bo'lgan radikal urinishidir.

Teodor Drayzer "Amerika fojeasi" romanida Klayd Griffitsning ichki nutqi orqali shaxsning identitet inqirozini badiiy va lingvokulturologik jihatdan ochib beradi. Qahramonning ichki monologi jamiyat tomonidan ilgari surilgan amerika orzusi diskursi bilan shaxsiy axloqiy qadriyatlar o'rtasidagi ziddiyatni aks ettiradi.

Klaydning nutqiy tafakkurida boylik, ijtimoiy mavqe va muvaffaqiyat bilan bog'liq baholovchi birliklar ustunlik qilib, uning dunyoqarashi va qarorlar qabul qilish jarayoniga bevosita ta'sir ko'rsatadi (Fairclough N., 1995, 33).

Mazkur identitet inqirozi roman syujeti rivojida muhim burilish nuqtasiga aylanadi. Drayzer qahramonning ichki nutqi orqali amerika orzusi diskursining shaxs ongiga qanchalik chuqur singib borishini va bu jarayonning fojiali oqibatlarini ko'rsatadi (Smith A., 2008, 112). Shu tariqa, "Amerika fojeasi" romanida identitet masalasi shaxsiy fojeadan kengroq ijtimoiy va madaniy muammo sifatida talqin etiladi.

Drayzer asari misolida ko'rinadiki, lingvomadaniy birliklar shaxsning ijtimoiy tabaqalanish jarayonidagi o'zgarishlarini ko'rsatib beruvchi asosiy vositadir. Mavjud tadqiqotlar bilan qiyoslaganda, Drayzerning tili orqali berilgan ijtimoiy tanqid hozirgi kunda ham transmilliy aloqalar va shaxs o'zligi masalasida dolzarb bo'lib qolmoqda. Bizning tadqiqotimiz natijalari Stuart Hallning identitet doimiy o'zgarishda bo'ladigan jarayon ekanligi haqidagi g'oyalarini Teodor Drayzerning badiiy voqeligi misolida tasdiqlaydi. Hall ta'kidlaganidek, identitet "bor bo'lgan narsa" emas, balki "shakllanadigan jarayon" dir.

Klayd Griffitsning o'z o'zligini ijtimoiy mavqe va moddiy baylik asosida qayta qurishi uning transmilliy muhitga (globallashgan muvaffaqiyat modeliga) o'zini identifikatsiya qilishi natijasidir. Shuningdek, asardagi lingvomadaniy birliklar tahlili Z.Baumanning "globallashuv davridagi identitet inqirozi" haqidagi qarashlari bilan hamohang bo'lib, qahramonning fojeasini nafaqat shaxsiy, balki davrning umuminsoniy muammosi sifatida baholashga imkon beradi.

XULOSA

Mazkur maqolada XX asr Amerika adabiyotining yirik nomoyandalaridan biri Teodor Drayzerning "Amerika fojeasi" asaridagi obraz va timsollar, "amerika orzusi" diskursi, milliy-madaniy va individual identitet hamda transmilliy qadriyatlar lingvokulturologik jihatdan tahlil qilindi.

Lingvokulturologik tahlil shuni ko'rsatdiki, roman tilida qo'llanilgan madaniy kodlar, baholovchi leksika va diskursiv birliklar nafaqat badiiy estetik vazifani bajaradi, balki muallifning ijtimoiy tanqidiy pozitsiyasini ham ifodalaydi. Teodor Drayzer amerika jamiyatidagi muvaffaqiyat modeli va uning shaxs identitetiga ko'rsatgan ta'sirini ochib berish orqali amerika orzusi konseptining ziddiyatli va murakkab xarakterini namoyon etadi.

Mazkur maqolada olingan ilmiy xulosalar lingvokulturologiya, adabiyotshunoslik, tarjimashunoslik hamda badiiy diskurs tahlili sohalarida nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Appadurai, A. *Modernity at Large: Cultural Dimensions of Globalization*. – Minneapolis: University of Minnesota Press, 1996. – 229 p.
2. Bakhtin, M. M. *The Dialogic Imagination: Four Essays*. – Austin: University of Texas Press, 1981. – 444 p.
3. Bauman, Z. *Identity: Conversations with Benedetto Vecchi*. – Cambridge: Polity Press, 2004. – 205 p.
4. Beck, U. *What Is Globalization?* – Cambridge: Polity Press, 2000. – 185 p.
5. Bhabha, H. K. *The Location of Culture*. – London; New York: Routledge, 1994. – 285 p.
6. Бондарко, А. В. *Функциональная семантика и дискурс-анализ*. – Москва: Языки славянских культур, 2010. – 368 с.
7. Во'ronov, B. *Zamonaviy adabiyotshunoslikda identitet masalalari*. – Toshkent: Fan, 2015. – 160 b.

8. Dreiser, T. *An American Tragedy*. – New York: Boni & Liveright, 1925. – 856 p.
9. Erikson, E. H. *Identity: Youth and Crisis*. – New York: W. W. Norton & Company, 1968. – 336 p.
10. Fairclough, N. *Critical Discourse Analysis: The Critical Study of Language*. – London: Longman, 1995. – 265 p.
11. Гулига, Е. В. *Основы лингвокультурологии*. – Москва: Флинта; Наука, 2012. – 224 с.
12. Hall, S. *Cultural Identity and Diaspora // Identity: Community, Culture, Difference / ed. by J. Rutherford*. – London: Lawrence & Wishart, 1990. – P. 222–237.
13. Hall, S. *Who Needs Identity? // Questions of Cultural Identity / ed. by S. Hall, P. du Gay*. – London: SAGE Publications, 1996. – P. 1–17.
14. Hochschild, J. L. *Facing Up to the American Dream: Race, Class, and the Soul of the Nation*. – Princeton: Princeton University Press, 1995. – 392 p.
15. Маслова, В. А. *Лингвокультурология*. – Москва: Академия, 2001. – 208 с.
16. Smith, A. D. *National Identity*. – Reno: University of Nevada Press, 1991. – 226 p.
17. Степанов, Ю. С. *Константы: Словарь русской культуры*. – Москва: Академический проект, 2004. – 992 с.
18. Верещагин, Е. М., Костомаров, В. Г. *Язык и культура*. – Москва: Индрик, 2005. – 1040 с.
19. Vertovec, S. *Transnationalism*. – London; New York: Routledge, 2009. – 208 p.
20. Воробьёв, В. В. *Лингвокультурология: теория и методы*. – Москва: РУДН, 1997. – 331 с.

REFERENCE:

1. Appadurai A. (1996). *Modernity at large: Cultural dimensions of globalization*. University of Minnesota Press.
2. Bakhtin M. M. (1981). *The dialogic imagination: Four essays*. University of Texas Press.
3. Bauman Z. (2001). *Identity in the globalizing world*. Polity Press.
4. Beck U. (2000). *What is globalization?* Polity Press.
5. Bhabha H. K. (1994). *The location of culture*. Routledge.
6. Bondarko A. V. (2010). *Funktsionalnaya semantika i diskurs analiz*. Moskva.
7. Bo‘ronov B. (2015). *Zamonaviy adabiyotshunoslikda identitet masalalari*. Toshkent.
8. Dreiser T. (1925). *An American tragedy*. Boni & Liveright.
9. Erikson E. H. (1968). *Identity: Youth and crisis*. W. W. Norton & Company.
10. Fairclough N. (1995). *Critical discourse analysis: The critical study of language*. Longman.
11. Guliga E. V. (2012). *Lingvokulturologiya asoslari*. Moskva.
12. Hall S. (1990). *Cultural identity and diaspora // Identity: Community, culture, difference / J. Rutherford (Ed.)*. Lawrence & Wishart, P. 222–237.
13. Hall S. (1996). *Who needs identity? // Questions of cultural identity / S. Hall & P. du Gay (Eds.)*. SAGE Publications, P. 1–17.
14. Hochschild J. L. (1995). *Facing up to the American dream: Race, class, and the soul of the nation*. Princeton University Press.
15. Maslova V. A. (2001). *Lingvokulturologiya*. Moskva: Akademiya.
16. Smith A. D. (2008). *National identity*. University of Nevada Press.
17. Stepanov Yu. S. (2004). *Konstanty: Slovar russkoy kultury*. Moskva.
18. Vereshchagin E. M., Kostomarov V. G. (2005). *Yazyk i kultura*. Moskva: Indrik.
19. Vertovec S. (2009). *Transnationalism*. Routledge.
20. Vorobyov V. V. (1997). *Lingvokulturologiya: teoriya i metody*. Moskva.